
Qo'shtepada "Xalqqa yordam-oliy qadriyat" shiori ostida kouching tadbiri o'tkazildi

Bugun Qo'shtepa tumanidagi Madaniyat markazida tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan tayyorlangan "Xalqqa yordam - oliv qadriyat" shiori ostidagi kouching tadbir o'tkazildi.

Tadbir ijtimoiy himoya tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida samarali muloqot o'rnatish, aholining ijtimoiy himoyaga oid muammolarini hal etishda yangicha yondashuvlarni joriy etish maqsadida bo'lib o'tdi.

"Xalqqa yordam - oliv qadriyat" shiori ostida bo'lib o'tgan tadbirda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining mas'ullari, mahallalarda faoliyat olib borayotgan ijtimoiy xodimlar hamda tumandagi 51 ta mahallalardan kelgan fuqarolar ishtirot etdilar.

Shuningdek, tadbir davomida tumandagi hunarmandlar tomonidan tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi ham tashkil etildi.

Tadbirda tuman hokimining o'rinnbosari A.Yusupov va Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi boshlig'i (v.b) A.Salimovlar so'zga chiqib tizimdagи yangiliklar, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun yaratilayotgan qulayliklar va umuman, inson qadrini ulug'lashga xizmat qiluvchi islohotlar samarasida so'z yuritishdi.

Qiziqarli trening va o'zaro savol-javoblarni o'zida jamlagan kouchingda tadbir ishtirotchilarining savollariga mutaxassislar tomonidan asosli javoblar berildi.

MADANIYAT-MARKAZI









MA'NAVIYAT INSONNING. ...LQNING,

JAMIYATNING, DAVLATNING

KUCH-QUDRATIDIR

SHAXSRIZOY















2024-11-15 13:55:08